



CINEMATIC RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND TURKMENISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE: HISTORICAL CONVERGENCE AND CREATIVE EXCHANGE

Shakhzod Oromov
 PhD Candidate
 Karshi State University
oromovshaxzod01@gmail.com
 Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Uzbekistan, Turkmenistan, film industry, independence, creative exchange, cultural cooperation, historical rapprochement, film festivals, historical integration. Received: 10.11.25 Accepted: 11.11.25 Published: 12.11.25	Abstract: In this article, the countries of Uzbekistan and Turkmenistan have established cooperation in the field of cinematography, starting from the time of independence. Special attention is paid to cooperation in the development of the art of cinema, the processes of creative exchanges and cultural rapprochement, joint projects in the field of cinematography, agreements between directors and actors of the two countries, film festivals and ties in the field of cinema. The article also outlined the role of the National features of the cinema of Uzbekistan and Turkmenistan and their interaction in the strengthening of cultural integration.
--	--

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTON VA TURKMANISTONNING KINO SOHASIDAGI ALOQALARI: TARIXIY YAQINLASHUV VA IJODIY ALMASHINUV

Shaxzod Oromov
 Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
oromovshaxzod01@gmail.com
 Qarshi, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Turkmaniston, kino sohasi, mustaqillik, ijodiy almashinuv, madaniy hamkorlik, tarixiy yaqinlashuv, kino festivallari, tarixiy inetgratsiya.	Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston va Turkmaniston davlatlari mustaqillikka erishgan davridan boshlab, kinomatografiya sohasida ham hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘ydi. Kino san’atini rivojlantirishdagi hamkorlik, ijodiy
---	---

almashinuvlar va madaniy yaqinlashuv jarayonlari, kinematografiya sohasidagi qo'shma loyihalar, ikki mamlakat rejissyorlari va aktyorlari o'rtasidagi kelishuvlar, kinofestivallar va kinoshunoslik sohasidagi aloqalarga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, maqolada O'zbekiston va Turkmaniston kino san'atining milliy xususiyatlari va ularning o'zaro ta'sirlari madaniy integratsiyaning mustahkamlanishidagi o'rni ko'rsatib berildi.

КИНОСВЯЗИ УЗБЕКИСТАНА И ТУРКМЕНИСТАНА В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ: ИСТОРИЧЕСКОЕ СБЛИЖЕНИЕ И ТВОРЧЕСКИЙ ОБМЕН

Шахзод Оромов

PhD докторант

Кариинский государственный университет

oromovshaxzod01@gmail.com

Кариин, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Узбекистан, Туркменистан, киноиндустрия, независимость, творческий обмен, культурное сотрудничество, историческое сближение, кинофестивали, историческая интеграция.

Аннотация: В данной статье рассматривается сотрудничество Узбекистана и Туркменистана в сфере кинематографии, сформировавшееся в годы независимости. Особое внимание уделяется взаимодействию в развитии киноискусства, процессам творческого обмена и культурного сближения, совместным проектам в области кинематографии, соглашениям между режиссёрами и актёрами двух стран, кинофестивалям и связям в киноотрасли. В статье также раскрыта роль национальных особенностей узбекского и туркменского кино и их вклад в укрепление культурной интеграции.

Kirish. XX asrning so'nggi choragida, ya'ni 1991-yilda O'zbekiston va Turkmanistonning mustaqil davlat sifatida tarix sahnasiga chiqishi, nafaqat siyosiy va iqtisodiy sohalarda, balki madaniy va ma'rifiy sohalarda ham yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Ayniqsa, kino san'ati kabi muhim madaniy kommunikatsiya vositasi orqali ikki qardosh xalq o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, o'zaro yaqinlashuv va ijodiy almashinuv jarayonlarini kuchaytirish imkoni yaratildi. Mustaqillik yillarida har ikki mamlakatda milliy kino san'atini tiklash, uni zamonaviy talablar asosida rivojlantirishga yo'naltirilgan islohotlar va loyihalar amalga oshirildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda xronologik ketma-ketlik, qiyosiy tahlil, tarixiylik, tizimli yondashuv, xolislik tamoyili kabi metodlardan unumli foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Mustaqillik yillarida o'zbek va turkman xalqlari o'rtasidagi do'stona munosabatlarni mustahkamlashda, boshqa madaniy sohalar vakillari qatori, kinoijodkorlar ham muhim o'rin tuta boshladi. Ular o'rtasidagi ijodiy hamkorlik nafaqat milliy kinematografiya rivojiga, balki ikki xalq o'rtasidagi madaniy yaqinlikni chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda.

1995-yil 10-fevral kuni Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlar hukumatlari tomonidan "Kinematografiya sohasida hamkorlik qilish to'g'risida"gi bitim imzolandi [1]. Ushbu hujjat MDH davlatlari o'rtasida kinematografiya yo'nalishidagi hamkorlikni rivojlantirish, milliy kino san'atini rag'batlantirish hamda umumiy madaniy merosni asrash va ommalashtirishni ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Mazkur bitimni imzolagan davlatlar ichida O'zbekiston va Turkmaniston davlatlari ham bor edi. Mazkur bitim doirasida MDHga a'zo davlatlar o'rtasida kinofilmlar yaratish va ularni tarqatish sohasida hamkorlikni yo'lga qo'yish, arxivlarda saqlanayotgan kinofondlardan samarali foydalanish, maxsus kinota'lim tizimini takomillashtirish va mutaxassis kadrlar tayyorlash borasida o'zaro aloqalarni mustahkamlash, kinofestivallar hamda turli madaniy tadbirlarda soha vakillarining faol ishtirokini ta'minlash, shuningdek, huquqiy va iqtisodiy sharoitlarni yaxshilashga qaratilgan qo'shma loyihalarni amalga oshirish kabi yo'nalishlar asosiy vazifalar sifatida belgilangan[2]. Ushbu bitimni imzolagan davlatlar qatorida O'zbekiston va Turkmaniston ham bor edi.

1996-yil 16-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Turkmaniston Hukumati o'rtasida "Madaniyat sohasida hamkorlik to'g'risida"gi bitim imzolandi [3]. Ushbu hujjatning 1-moddasida ikki davlat o'rtasida mavjud an'anaviy madaniy aloqalarni asrash va yanada rivojlantirish, shuningdek kino, televidenie va radioeshittirish sohalarida o'zaro hamkorlik uchun qulay huquqiy va tashkiliy sharoitlar yaratish ko'rsatib o'tildi. Bitimning 8-moddasida esa kino sohasidagi aloqalarni chuqurlashtirish maqsadida qo'shma kinofestivallar o'tkazish, kinofilmlar, delegatsiyalar va mutaxassislar almashinuvini tashkil etish, birgalikda filmlar ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish, kinoarxivlar o'rtasida hamkorlik o'rnatish hamda kinematografiya sohasiga oid adabiyot va materiallar almashishga ko'maklashish bo'yicha kelishuvga erishilgan. Mazkur bitimning amalga tadbiriq etilishi natijasida mustaqillik yillaridan boshlab o'zbek va turkman kinoijodkorlari o'rtasida izchil hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi[4].

2004-yil 16-mart kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kinematografiya sohasida boshqarishni takomillashtirish to'g'risida"gi PF-3407-son Farmoni [5] hamda 2004-yil 17-martda Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan "O'zbekkino" Milliy agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi 126-sonli qarori milliy kinematografiya tizimida tub

islohotlarni amalga oshirishga asos solindi. Ushbu me'yoriy-huquqiy hujjatlarda O'zbekistonda kino sohasini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, soha infratuzilmasini mustahkamlash, xalqaro hamkorlik aloqalarini kengaytirish, shu jumladan, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va qo'shma loyihalarni amalga oshirish uchun muhim shart-sharoitlarni yaratishga qaratildi. Mazkur farmon va qarorning amaliy natijalari, xususan, O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi kino sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishda ham o'z ifodasini topdi. "O'zbekkino" Milliy agentligi faoliyati yo'lga qo'yilgandan so'ng xalqaro miqyosdagi hamkorlik loyihalariga keng yo'l ochildi, qo'shni davlatlar, jumladan Turkmaniston bilan madaniy almashinuv va ijodiy hamkorlik formatlari yangi bosqichga ko'tarildi. O'zaro delegatsiyalar almashinuvi, kinofestivallarda qatnashish, tarixiy va etnografik mavzularda qo'shma filmlar yaratish bo'yicha tashabbuslar kuchaydi. Shu tariqa, 2004-yildagi islohotlar nafaqat milliy kino sohasini institutsional jihatdan mustahkamladi, balki mintaqaviy darajadagi hamkorlikni ham sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi.

2006-yildan boshlab Turkmanistonda kinematografiya sohasini isloh qilish va rivojlantirish borasida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirila boshladi. Xususan, ushbu davrdan boshlab mamlakatda milliy kino san'atini tiklash, uning ilmiy-amaliy va madaniy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan qadamlar tashlandi. Shu bilan birga, qator xorijiy mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi bilan ham kino sohasidagi hamkorlik aloqalari faollashdi. 2007-yilda Turkmanistonda film studiyaning faoliyati qayta tiklandi va bu kino sohasining institutsional bazasini yangilashda muhim bosqich bo'ldi. Milliy qadriyatlar, an'analar va tarixiy mavzuga ega bo'lgan filmlar yaratishga ustuvor ahamiyat qaratilib, mahalliy kinematografiyada milliy ruhni ifoda etuvchi yangi tendensiyalar shakllanishni boshladi.

2008-yil 14-20 avgust kunlari Toshkent viloyati hamda Toshkent va Samarqand shaharlarida Turkmaniston kinosi kunlari bo'lib o'tdi. Ushbu tadbir doirasida milliy urf-odatlar va qadriyatlari o'xshash bo'lgan Turkmaniston kinoijodkorlari tomonidan 11 ta film namoyish etildi [6]. Madaniy yaqinlik va o'zaro tushunishni mustahkamlashga qaratilgan ushbu kino kunlari ikki davlat o'rtasidagi kino sohasidagi hamkorlik aloqalarining muhim bosqichi sifatida baholandi. Mazkur yilning kuz oyida Ashgobodda "Turkmaniston va jahon kinosi" xalqaro kinofestivali bo'lib o'tdi. Festival dasturiga dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan kinoijodkorlar asarlari kiritildi [7]. Mazkur festival Turkmanistonda kino san'atini rivojlantirish, uni jahon madaniy maydoniga integratsiya qilish yo'lidagi muhim ijtimoiy-madaniy voqea bo'ldi. Festival doirasida hujjatli va qisqa metrajli filmlar namoyish etildi. Tadbir davomida mahalliy va xorijiy kinematografchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni kuchaytirish, kino san'atini rivojlantirish, xususan, hujjatli va qisqa metrajli kinematografiya sohasidagi dolzarb muammolarni muhokama qilish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratildi. Festival dasturiga dunyoning turli mintaqalaridan kelgan

kinoijodkorlarning filmlari kiritilgan bo'lib, ushbu xalqaro tadbirda O'zbekiston kinoijodkorlari ham faol ishtirok etdi.

2008–2010 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi madaniy-gumanitar hamkorlik dasturi doirasida, 2009-yil 17-sentabr kuni Ashxobod shahridagi Alp Arslan nomidagi Milliy yoshlar teatrida “O'zbek kinosi kunlari”ning rasmiy ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Tadbirda O'zbekistonlik kinoijodkorlar tomonidan “Sharq gavhari” hujjatli filmi hamda Yu.Agzamovning “O'tgan kunlar” badiiy filmi namoyish etildi.

2017-yil 6-7 mart kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning davlat tashrifi bilan Turkmaniston Respublikasida bo'ldi[8]. Bu tashrif Sh.Mirziyoevning Prezident sifatidagi birinchi xorijiy safari bo'ldi. Ushbu uchrashuvlar doirasida 2017–2019 yillarga mo'ljallangan madaniy va gumanitar sohadagi qo'shma dasturga imzo chekildi. Mazkur dasturda davlatlar o'rtasida kino sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishga oid bir qator kelishuvlar qamrab olingan edi. Mazkur yilning 4-dekabr kuni Alisher Navoiy nomidagi Kino saroyida Turkmaniston kinosi kunlari tashkil etildi. “O'zbekkino” milliy agentligi bosh direktori O. Musayev va boshqa mas'ul shaxslar ikki davlat o'rtasida madaniyat va san'at sohalarida, jumladan kino san'ati yo'nalishida ham doimiy va izchil aloqalar rivojlanayotganini ta'kidladilar. Kino kunlari “At-mirat” nomli turkman filmining namoyishi bilan ochildi. Ushbu film Turkman xalqining milliy ramzi hisoblangan axalteke otlari hayoti va ular bilan bog'liq an'analarni tasvirlaydi. Filmda asosiy qahramon Mardonning tirishqoqligi va irodasi orqali uloqlarda g'alaba qozonishi va haqiqiy yigit sifatida shakllanishi aks ettirilgan.

“O'zbekkino” milliy agentligi va “Turkmanfilm” birlashmasi hamkorligida tashkil etilgan kino kunlari davomida nafaqat “At-mirat” filmining, balki mashhur shoir hayoti va ijodiga bag'ishlangan “Maxtumquli”, Axalteke otlarining obrazini yaqqol aks ettirgan “Kopetdag' – askarning orzusi” hamda “Sayis”, shuningdek oila va muhabbat mavzularini o'rganuvchi “Qumli kelin qo'shiqlari” va “Muhabbat merosi” kabi filmlar ham namoyish etildi. Ushbu filmlar mavzular va janrlar xilma-xilligini ko'rsatib, ikki davlat madaniyati va kino san'ati o'rtasidagi o'zaro aloqalarni mustahkamlashga xizmat qildi. Bu kino kunlari milliy va madaniy merosni saqlash va yosh avlodga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ular ijodiy hamkorlikni rivojlantirish, ikki mamlakat kino sanoatidagi zamonaviy tendensiyalar va muammolarni muhokama qilish uchun samarali platforma bo'lib xizmat qildi. Qo'shma loyihalar orqali turkman va o'zbek kinematografiyasidagi o'zaro ta'sirlar va integratsiya kengayishi kutilmoqda, bu esa mintaqaviy madaniy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi.

2021-yil 19-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan “Toshkent xalqaro kinofestivalini qayta tiklash va o'tkazish to'g'risida” qaror imzolandi. Mazkur qarorga muvofiq, kinofestival “Ipak yo'li durdonasi” nomi ostida o'tkazilishi belgilab qo'yildi.

Uning asosiy maqsadlari milliy kino san'atini rivojlantirish, xalqaro hamjamiyatda O'zbekistonning nufuzini oshirish hamda milliy tarix va madaniyatni kino san'ati orqali keng auditoriyaga yetkazishdan iboratdir. Qarorda ta'kidlanishicha, Toshkent xalqaro kinofestivali 2021-yildan boshlab O'zbekiston Kinematografiya agentligi tomonidan har yili 28- sentabrdan 3-oktabrga qadar muntazam ravishda o'tkazilishi belgilandi.

2024-yili O'zbekiston Kinematografiya agentligi va "Turkmanfilm" kinostudiyasi hamkorligida suratga olingan "Maxtumquli Firog'iy" tarixiy badiiy filmi rejissyor Muzaffarxon Erkinov rahbarligida yaratildi[9]. Filmning suratga olish ishlari Turkmaniston va O'zbekiston hududida joylashgan 50 dan ortiq maskanda amalga oshirildi. Filmda Maxtumquli Firog'iy shaxsiyatining badiiy talqini orqali xalqlar o'rtasidagi do'stlik g'oyasi yuksak darajada yoritilgan. Asarda shoirning sinovlarga boy hayot yo'li, mustahkam irodasi, ma'naviy-axloqiy qarashlari, shuningdek, uning g'azal va musiqiy merosi orqali ifoda topgan fikr va tuyg'ularini ekranda namoyon etishga o'rnilgan. Filmni yaratishda O'zbekiston va Turkmanistondan bo'lgan taniqli san'atkorlar ishtirok etgan. Xususan, Ahmet Amandurdiev, Chori Berdiev, Boyir Xolmirzaev, Lola Rozieva, Hamza Hasanov, Allaberdi Tashiev, Rasulxon Qodirxonov kabi aktyorlar turli obrazlarni ijro etgan[10]. Maxtumquli Firog'iy obrazi esa turkmanistonlik aktyor Ahmet Amandurdiev tomonidan yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi do'stona munosabatlar kino san'ati sohasida ham mustahkamlandi. Ikki davlat kinoijodkorlari o'rtasidagi hamkorlik aloqalari rivojlantirilib, turli madaniy tadbirlar va uchrashuvlar tashkil etildi. Ayniqsa, o'zbek va turkman tillarida filmlar yaratish, ularni tarjima va dublyaj qilish ishlariga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston va Turkmaniston kinoijodkorlarining birgalikdagi ishlari aktyorlar, rejissyorlar, operatorlar va boshqa soha mutaxassislari uchun ijodiy almashinuv imkonini berdi. Kinolarni o'zbek va turkman tillarida suratga olish ishlari amalga oshirildi. Tarjima va dubliyaj jarayonlariga e'tibor qaratildi.

Biroq, hamkorlikda yuzaga kelayotgan ayrim muammolar ham mavjud: moliyalashtirish masalalari, til va madaniyatlar orasidagi tafovutlar, texnik-texnologik resurslarning chekliligi, distributsiya tarmoqlari va auditoriyaga yetib borishdagi to'siqlar. Kelajakda ushbu yo'nalishlarda strategik reja tuzish, davlat siyosatini yanada kuchaytirish va kino sanoatini davlatlararo hamkorlik doirasida qo'llab-quvvatlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. ЎзМА, М-37-фонд, 4-рўйхат, 560 -йиғма жилд, 16-варақ.
2. ЎзР МА М-7 фонди, 2-рўйхат, 27-йиғма жилд, 67-69-варақлар.
3. ЎзМА, М-37-фонд, 4-рўйхат, 560 -йиғма жилд, 29-варақ.

4. Зиямов Н. Роль Узбекистана в межгосударственном экономическом и культурном сотрудничестве стран Центральной Азии (1991 – 2001г.г.): Автореф. дисс...канд. ист. наук. – Ташкент, 2002. – С. 120.
5. ЎзМА, М-37-фонд, 4-рўйхат, 560 -йиғма жилд, 29-варақ.
6. Халқ сўзи. - 2008. - 21 август.
7. Турсунов А. Марказий Осиё давлатлари билан Ўзбекистон Республикасининг маданий алоқалари тарихи. (1991 – 2019 йиллар) Тарих фанлари. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс. – Қарши, 2021. -Б. 123.
8. Эрназаров Ф. Н. Краткий обзор развития истории международного кинофестиваля в Ташкенте // Наука и мир. – Т. 2. №9 (37). 2017. – С. 73-74.
9. Усмонова Н. “Махтумкули Фироғий” филмининг премьераси ўтказилди. Ўзбекистон Ахборот агентлиги, 2024 йил.
10. Ортикова М. Ўзбекистон павилони кино бозоридаги ҳамкорлик учун муҳим майдондир. //хабар.уз/маданият/Ўзбекистон-павилони-кино-бозоридаги-ҳамкорлик.